



XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 13-may

II-12-63-14-220-K/25

Yangihayot tumani

Yangihayot tumani mahalliy budjetining 2025-yil birinchi chorakdagi daromadlari va xarajatlar ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida" 2024-yil 24-dekabrda O'RQ-1011-son Qonuni qabul qilingan.

Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining "2025-yil uchun Toshkent shahar mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida" 2024-yil 26-dekabrda VII-4-024-14-0-K/24-sonli qaroriga hamda xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining "2025-yil uchun Yangihayot tumanining mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida" 2024-yil 27-dekabrda II-5-025-14-220-K/24-son qaroriga asosan tuman mahalliy budjetining jami daromadlari va xarajatlari 95 113 490,0 ming so'm miqdorida tasdiqlangan.

2025-yil birinchi chorak mahalliy budjet daromadlar rejasi 20 439 610,0 ming so'm miqdorida belgilangan bo'lib, haqiqatda tushgan tushum 27 776 913,9 ming so'mni tashkil qilgan, ya'ni rejaga nisbatan 7 337 303,9 ming so'm oshirib bajarilgan.

Shuningdek, Yangihayot tumanida 2025-yil elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan 395 505,7 ming so'm mablag' tushgan.

Yangihayot tumani mahalliy budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan muassasalar tomonidan 2025-yil birinchi chorak davomida amalga oshirilgan xarajatlari ilovaga muvofiq 30 746 111,7 ming so'm moliyalashtirildi.

Jumladan:

Maktabgacha va maktab ta'limi xarajatlari uchun 14 738 587,0 ming so'm;

Shundan, xalq ta'limi sohasiga 4 732 608,0 ming so'm, maktabgacha ta'lim sohasiga 10 005 979,0 ming so'm,

Obodonlashtirish boshqarmasi xarajatlari uchun 6 177 597,0 ming so'm;

Davlat boshqaruv idoralari xarajatlari uchun 4 130 976,0 ming so'm;

Yangihayot tuman mahalla uyushmasi budjeti xarajatlari uchun 401 940,0 ming so'm;

Madaniyat sohasi xarajatlari uchun 303 795,2 ming so'm;

Sport maktabi xarajatlari uchun 1 486 645,0 ming so'm;

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi uchun 2 444 500,0 ming so'm;

Boshqa xarajatlar uchun 118 052,0 ming so'm.

Toshkent shahar mahalliy budjetidan Yangiheyot tumani mahalliy budjetiga 944 019,6 ming so'm mablag' quyidagi sohalarga yo'naltirish uchun ajratilgan.

Jumladan:

Sog'liqni saqlash sohasiga xodimlarning homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqasi xarajatlari uchun 183 311,3 ming so'm;

Yangiheyot tumani bo'yicha nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ajratiladigan subsidiya va kompensatsiya xarajatlari uchun 121 411,0 ming so'm;

Yangiheyot tuman mahalliy budjetining zaxira jamg'armasiga 400 000,0 ming so'm;

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha xarajatlarni davlat hisobidan qoplash xarajatlari uchun 239 297,3 ming so'm.

Toshkent shahar mahalliy budjetining 2025-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan Yangiheyot tumani mahalliy budjetiga 156 000,0 ming so'm, Yangiheyot tumani mahalliy budjetining 2025-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari 12 794 777,0 ming so'm, jami erkin qoldiq mablag'lari 12 950 777,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, 2025-yil birinchi chorak davomida jami 9 636 907,0 ming so'm mablag' xarajatlarga yo'naltirilgan.

Jumladan, quyidagi sohalarga:

Maktabgacha va maktab ta'limi sohasi xarajatlari uchun 458 400,0 ming so'm;

Davlat boshqaruv idoralari xarajatlari uchun 3 214 507,0 ming so'm;

"Ayollar daftari jamg'armasi"ga 625 000,0 ming so'm;

"Yoshlar daftari jamg'armasi"ga 1 500 000,0 ming so'm;

"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga 3 839 000,0 ming so'm.

Yangiheyot tumani mahalliy budjetining zaxira jamg'armasi 2025-yil birinchi chorakda 122 489,0 ming so'm rejalashtirilgan va Toshkent shahar budjetining zaxira jamg'armasi hisobidan 400 000,0 ming so'm jami 522 489,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, 2025-yil birinchi chorak davomida 38 291,0 ming so'm xarajatlarga yo'naltirilgan.

Yuqorida keltirilgan hisobot va ma'lumotlarni o'rganib chiqib, xalq deputatlari Yangiheyot tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Maxmudovning "Yangiheyot tumani mahalliy budjetining 2025-yil birinchi chorak davomida daromadlar va xarajatlar ijrosi to'g'risida"gi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Yangiheyot tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi S.Vafayev zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



INOGAMOV XAYOT
ILYASOVICH

Xalq deputatlari Yangiheyot tumani Kengashining
2025-yil 13-maydagi
II-12-63-14-220-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Yangiheyot tumani mahalliy budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan muassasalar tomonidan 2025-yil birinchi chorak davomida
amalga oshirilgan xarajatlari
M A ' L U M O T**

№	Tashkilotlar nomi	Jami xarajatlari				Ish haqi xarajatlari				Ish haqiga ajratmalar				Boshqa xarajatlari			
		Aniqlangan reja	Kassa xarajati	Farqi	%	Aniqlangan reja	Kassa xarajati	Farqi	%	Aniqlangan reja	Kassa xarajati	Farqi	%	Aniqlangan reja	Kassa xarajati	Farqi	%
1.	Obodonlashtirish boshqarmasi	6 177 597	5 628 387	549 210	91%	3 019 319	2 593 586	425 733	86%	721 078	630 375	90 703	87%	2 437 200	2 404 426	32 774	99%
2.	Maktabgacha va maktab ta'limi sohasi	14 738 587	9 614 875,9	5 123 711,1	65%	478 000	473 000	5 384	99%	114 840	114 651	189	100%	14 145 363	9 027 226	5 118 137	64%
3.	Sog'liqni saqlash																
4.	Davlat boshqaruv idoralari	4 130 976	3 646 246,6	484 729,4	88%	3 159 099	2 826 239	332 860	89%	774 880	678 887	95 974	88%	197 016	141 121	55 896	71%
5.	Yangiheyot tuman mahalla uyushmasi budjeti	401 940	314 960	86 980	78%									401 940	314 960	86 980	78%
6.	Tuman madaniyat markazlari	303 795,2	249 511,7	54 283,6	82%	185 593	166 046	19 547	89%	45 421	41 372	4 049	91%	72 781	42 094	30 687	58%
7.	Sport maktabi	1 486 645	1 448 662,3	37 982,7	97%	1 011 742	991 750	19 992	98%	256 341	255 483	858	100%	218 562	201 429	17 133	92%
8.	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	2 444 500	2 444 500	0,0	100%									2 444 500	2 444 500	0,0	100%
9.	Toshkent shahar mahalliy budjetidan berilgan mablag	944 019,6	535 722,5	408 297,1	57%	183 311	183 311	0,0	100%					760 708	352 411	408 297	45%
10.	Boshqalar	118 052,0	111 150,7	6 901,3	94%	11 861	8 571	3 290	72%	2 900	1 851	1 049	64%	103 291	100 729	2 563	98%
	Жами:	30 746 111,7	23 994 016,7	6 752 095,1	78%	8 049 310	7 242 504	806 806	90%	1 915 440	1 722 618	192 821	90%	20 781 362	15 028 894	5 752 467	72%